

**AUDITORLIK FAOLIYATINI YANGI ZAMONGA MOSLASH  
TARTIB-TAMOYILI**

**Maxkamboyev Komil Abdulxakovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya va buxgalteriya” kafedrası dotsenti

**Xamidova Munira Abduvali qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda, Auditorlik faoliyatini yangi zamonga moslash tartib-tamoyili haqida so‘z yuritiladi. Bu mavzuda biz hozirgi kunda auditorlik tashkilotlari faoliyati bo‘yicha yangiliklar bilan tanishib o‘tamiz.

**Kalit so‘zlar:** auditorlik faoliyati, auditorlik tashkiloti, auditorlik tekshiruvi, ichki auditor, auditor malaka sertifikatı, auditorlik xizmati, majburiy auditorlik tekshiruvi.

**Annotation:** This thesis talks about the procedure for adapting the Auditor's activity to the new era. In this topic, we will get acquainted with the news on the activities of audit organizations.

**Keywords:** audit activity, audit organization, audit review, internal auditor, auditor qualification certificate, audit service, mandatory audit review.

**Аннотация:** В этом тезисе говорится о порядке адаптации деятельности аудитора к новой эпохе. В этой теме мы будем знакомиться с новостями, связанными с деятельностью аудиторских организаций.

**Ключевые слова:** аудиторская деятельность, аудиторская организация, аудиторская проверка, внутренний аудитор, квалификационный аттестат аудитора, аудиторская служба, обязательная

аудиторская проверка.

Globalashuv sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va liberallashtirish, jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvini tezlashtirish va kapital bozorini hamda raqamli iqtisodiyotni yanada taraqqiy ettirish, zamonaviy korporativ boshqaruv printsiplarini joriy etish ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Tizim faoliyatini yanada takomillashtirish, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruvni yanada yaxshilash uchun auditorlik xizmatlari sifatini oshirish lozim bo'ladi.

Quyida yurtimizda Auditorli faoliyatiga oid yangiliklar, majburiy auditorlik tekshiruvlari: nimalar o'zgaradi, ichki audit xizmati xodimlariga sertifikat berish tartibi belgilanmoqda, ichki audit milliy standartlari ishlab chiqildi, ichki audit xizmati xodimlariga sertifikat berish tartibi belgilanmoqda, tekshirishlarni ro'yxatga olish kitoblarining qog'oz shakli bekor qilinmoqda, auditorlarning ishi sifatini tekshirish tartibi belgilandi, tekshiruvlar o'tkazish tartibi to'g'risidagi yangi nizom tadbirkorlik sub'yektlariga qanday afzalliklar beradi, auditorlik tekshiruvda ekspert ishidan foydalanishning xorij tajribalarini ko'rib chiqamiz.

Vazirlar Mahkamasining 13.02.2023 yildagi “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 62-son Qarori imzolandi. Inspeksiyaning moliyaviy nazorat funksiyasi yuklatilgan lavozimlarda hamda vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatida faoliyat yuritish uchun xodimlar O'zbekiston auditorlar palatasi tomonidan beriladigan sertifikatga ega bo'lishlari lozim.

Sertifikat 4 yilga beriladi va keyinchalik u cheklanmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Hujjatga muvofiq, sertifikat olishning quyidagi tartibi o'rnatilmoqda:

- talabgor har oyning 10-canasiga qadar (shu kuni ham) Auditorlar palatasining rasmiy veb-sayti orqali ariza yuboradi;
- arizani ko'rib chiqqanlik uchun BHMning 2 baravari miqdorida yig'im undiriladi;
- har oyning 11-sanasidan 15-sanasiga qadar (shu kuni ham)

Auditorlar palatasi talabgorlarni imtihonga qo‘yish haqida qaror qiladi;

- Palataning qarori talabgorga shaxsiy kabinet orqali yuboriladi;
- malaka imtihoni o‘tkazilishidan kamida 5 kun oldin Palata yozma yoki elektron shaklda imtihon o‘tkazish kuni, vaqti va joyi haqida xabarnoma yuboradi;
- malaka imtihoni axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda test shaklida o‘tkaziladi (3 soat davom etadi);
- testlar 100 ta savoldan iborat bo‘ladi va har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball beriladi, testni muvaffaqiyatli topshirish uchun kamida 75 ball to‘plash lozim bo‘ladi;
- imtihon o‘tkazilgandan so‘ng 3 kun ichida Palata imtihon natijalarini rasmiy saytida e‘lon qiladi, sertifikatlarni rasmiylashtirib ularning elektron shaklda talabgorlarga yuboradi.

CIA, CRMA, QIAL, IAP, SGAP kabi xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lgan shaxslarga milliy sertifikatlar imtihonsiz beriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi sertifikatlar reyestrini yuritadi, reyestr Auditorlar palatasi rasmiy saytida e‘lon qilinadi.

Moliya vazirining “Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida”gi 52-con buyrug‘i imzolandi (24.10.2022 yilda ro‘yxatga olingan, ro‘yxat raqami 3394).

Hujjat bilan byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar va ular tizimidagi byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg‘armalarining ichki audit xizmati uchun milliy standartlar o‘rnatilmoqda.

Standartlarga muvofiq:

- ichki audit xizmati o‘z faoliyatida vazirlik va idoraning boshqa tarkibiy bo‘linmalaridan mustaqil hisoblanadi va bevosita vazirlik va idora rahbariga bo‘ysunadi hamda unga hisobdordir;
- ichki audit tadbirlari ichki audit yillik rejasi asosida ichki audit ob‘yektida o‘tkaziladi;
- byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar kelib tushganda hamda fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali ichki audit tadbiri o‘tkaziladigan ichki audit ob‘yektlari aniqlanganda, ichki audit tadbirlari vazirlik va idora rahbari qarori asosida o‘tkaziladi;
- ichki audit tadbiri ichki audit tadbirini o‘tkazish guruhi yoki ichki

audit xizmati xodimi tomonidan o‘tkaziladi;

- ichki audit xizmati ichki audit ob‘yekti rahbariga auditdan 5 kun oldin ichki audit tadbiri davomida bajariladigan ishlar to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot, ichki audit tadbirini o‘tkazishda taqdim etilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar va hujjatlar ro‘yxati hamda ularni taqdim etish muddatlari, ichki audit tadbirini o‘tkazish guruhi a‘zolari ro‘yxatini ilova qilgan holda xabarnoma yuboradi. Shuningdek, 2023 yilning 1 sentyabridan boshlab ichki audit xizmati xodimining malakasi ichki audit milliy malaka sertifikatini orqali tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 19.10.2022 yildagi “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 611-son qarori qabul qilindi. Hujjat bilan tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobini to‘ldirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanmoqda. Endilikda tekshirishlarni ro‘yxatga olish kitobi faqat elektron shaklda yuritiladi (ilgari qog‘oz shaklda ham yuritish mumkin bo‘lgan).

Tekshirishni boshlashdan oldin mansabdor shaxs tomonidan kitobga quyidagi ma‘lumotlar kiritiladi:

- “Davlat nazorati” tizimida ro‘yxatga olingan tekshirish raqami;
- tekshirishni o‘tkazayotgan nazorat qiluvchi organ nomi;
- tekshirish o‘tkazayotgan mansabdor shaxs(lar)ning F.I.Sh;
- maxsus guvohnoma raqami (ushbu raqam tizimdagi ma‘lumotlar bilan to‘g‘ri kelmaganida tekshirish o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi);
- tadbirkorlik sub‘yekti manzili;
- tekshirishga asos bo‘lgan buyruq raqami va sanasi;
- tekshirish turi (tizimdagi turlardan biri tanlanadi va maxsus kodi ko‘rsatiladi);
- tekshirish muddati;
- tekshirishga auditor va ekspertlar jalb qilinganda ularning F.I.Sh., ish joyi, faoliyat sohasi, jalb qilinishga asos bo‘lgan shartnoma raqami va sanasi.

Shuningdek qaror bilan quyidagilar tasdiqlanmoqda:

- Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestasiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom;
- Nazorat qiluvchi organlarning “xavfni tahlil etish” tizimlariga qo‘yiladigan minimal talablar.

Vazirlar Mahkamasining 28.09.2022 yildagi “Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 538-son qarori imzolandi.

Nizomga muvofiq:

- tashqi nazorat moliya vazirining buyrug‘i asosida Moliya vazirligi tomonidan 10 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi;
- tashqi nazoratni amalga oshirishda auditorlarning respublika jamoat birlashmalari vakillari jalb qilinadi;
- tashqi nazorat oxirgi ikki moliyaviy hisobot davrida majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazgan auditorlik tashkilotlariga nisbatan o‘tkaziladi;
- tijorat banklarini majburiy auditorlik tekshiruvdan o‘tkazgan auditorlik tashkilotlari Markaziy bank bilan birgalikda tashqi nazoratdan o‘tkaziladi;
- tashqi nazorat ob‘yekti auditorlik tashkilotining auditorlik xizmati ko‘rsatishdagi faoliyati hisoblanadi, shu bilan birga tashkilotning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi;
- auditorlik tashkiloti tomonidan kerakli ma‘lumotlarni taqdim etmaslik uni auditorlik tashkilotlari reyestridan chiqarishga asos bo‘ladi;

Ma‘lumot uchun: auditorlik tashkiloti Auditorlik tashkilotlarining reyestridan chiqarilgan taqdirda, auditorlik faoliyatini amalga oshirishga va firma nomida «auditorlik tashkiloti» degan so‘z birikmasidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

- tashqi nazorat o‘tkazilganda tekshiruvchilar “tekshirishlarni ro‘yxatga olish” kitobini to‘ldirishlari lozim;
- tekshirish natijasi bo‘yicha auditorlik tashkilotiga 30 kun muddat ichida kamchiliklarni to‘g‘irlash haqida xabarnoma beriladi;
- auditorlik faoliyatidan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanganlik, auditorlik tekshiruvda o‘rnatilgan cheklovlarga rioya etmaganlik va soxta auditorlik xulosalari taqdim etilganligi aniqlanganda Moliya vazirligi sudga murojaat etishga haqli;
- tashqi nazorat natijalari va ko‘rilgan choralar Moliya vazirligi saytida e‘lon qilinadi.

2022-yil 13-sentyabr kuni Prezidentning “Tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi PQ-374-son qarori imzolandi. Mazkur normativ hujjat Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida tekshiruvlar va profilaktika tadbirlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni amalga kiritadi. Amaldagi Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom (07.01.2021 yildagi 1-son VMQga 2-ilova) yangi joriy etilayotgan normativ hujjat bilan to‘ldirilmoqda va takomillashtirilmoqda.

Xususan, nizom tekshiruvlarni nafaqat soliq organlari, balki har qanday nazorat qiluvchi organlar tomonidan o‘tkazilishi tartibini joriy etadi.

"Yagona davlat nazorati" axborot tizimi tushunchasi, shuningdek, nazorat qiluvchi organlar va tekshiriluvchi tadbirkorlik sub’yektlari uchun uning ishlash tartibi berilmoqda.

Ma’lumot uchun. "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi – tadbirkorlik sohasida davlat nazorati bilan bog‘liq katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beruvchi hamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida tekshiruv o‘tkazish tashabbusini (kelishish yoki xabardor etish orqali), o‘tkaziladigan tekshiruvlarni va ular natijalarini ro‘yxatga olishni ta’minlovchi elektron axborot tizimi.

Nizom joriy etilishi bilan bitta ham tekshiruv vakolatli organ bilan kelishgan yoki uni xabardor etgan holda Axborot tizimida ro‘yxatga olinmasdan amalga oshirilmaydi. Bunda, agar soliq to‘lovchi unda tayinlangan tekshiruv tizimda ro‘yxatga olinmaganligini aniqlasa, u nazorat qiluvchi organni o‘z hududiga qo‘ymaslikka to‘liq haqli.

Tekshiruvchilarni o‘z hududiga qo‘ymaslik huquqi inspektorlarda tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnoma majburiy mavjudligi bilan to‘ldirildi.

Va agar ilgari boshqalar qatorida, tekshiruv o‘tkazish uchun asos tashqi axborot bo‘lgan bo‘lsa:

- jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq yoxud valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlari to‘g‘risidagi murojaatlari;
- OAVda soliqqa va valyutaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’lon qilinganda,
  - endilikda Internet jahon axborot tarmog‘idan ma’lumotlar olinganda tekshiruv tashabbusi bilan chiqish mumkin.

Yangi nizom tekshiruvni kelishish uchun buyurtma berishning aniq tartibi

va muddatlarini belgilaydi. Buyurtma vakolatli organ va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan uch ish kunidan kechiktirmasdan ko‘rib chiqiladi:

- bir kunlik tekshiruvda nazorat qiluvchi organning hududiy bo‘linmasi vakolatli organning hududiy bo‘linmasiga murojaat qiladi;
- muddati bir kundan ortiq bo‘lgan tekshiruvda – nazorat qiluvchi organning markaziy apparati bevosita vakolatli organga murojaat qiladi;
- nazorat qiluvchi organning markaziy apparati tomonidan tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarni kelishish uchun buyurtma nazorat qiluvchi organning markaziy apparati tomonidan vakolatli organga kiritiladi.

Bunda tekshiruvga ruxsat berilishi yoki tekshiruvni o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkin.

E’tibor bercak! Tekshiruvga ruxsat berilmaydi, agar:

- tekshiruvni kelishish uchun buyurtma Axborot tizimiga joylashtirilmagan bo‘lsa;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilgan bo‘lsa;
- tadbirkorlik sub’yekti faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan yoki faoliyati tugatilgan bo‘lsa;
- tekshiruv o‘tkazishni tashabbus qilishga asos qilingan holatlar o‘z tasdig‘ini topmagan bo‘lsa.

Yangi Nizom "xavfni tahlil etish" tizimi natijalariga asosan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida 10 ish kuni oldin tadbirkorlik sub’yektini majburiy xabardor qilishni joriy etadi. Ilgari kameral yoki sayyor tekshiruvlar o‘tkazilishi to‘g‘risida hech kim xabardor qilmagan.

Soliq auditida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lgan taqdirda soliq organi DSQ bilan kelishgan holda soliq to‘lovchini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqli ekanligi ko‘rsatilgan. Endi, yangi nizomdan kelib chiqib, soliq organi soliq to‘lovchini har qanday tekshiruv turi to‘g‘risida xabardor qilishi kerakligi ma’lum bo‘ladi.

Aniqlashtirilishicha, tekshiruvlar doirasida nazorat qiluvchi organning boshqa tarkibiy bo‘linmalarining tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini tekshirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslari jalb etilishi mumkin. Nazorat qiluvchi organ tekshiruvni o‘zining hududiy bo‘linmalariga yuklatishga haqli.

Aniqlashtirilishicha, tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqda shartnoma asosida jalb etilgan auditorlik tashkilotlari mutaxassislari, shuningdek ekspertlar ko‘rsatilmaydi.

Quyidagi hollarda tekshiruvni vakolatli organ bilan kelishilgan holda vaqtincha to‘xtatish imkoniyati qo‘shildi:

- tadbirkorlik sub’yekti rahbari (rahbar vazifasini bajaruvchi shaxs) tekshiruvda ishtirok etish imkoniyati bo‘lmasa;
- talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa;
- sohaviy mutaxassislar mavjud bo‘lmagan taqdirda.

Nazorat qiluvchi organlarga tekshiruv muddatini faqatgina bir marta va dastlab belgilangan tekshiruv muddatidan oshmagan muddatga uzaytirish imkoniyati berildi. Bunda, dastlab o‘tkazilgan va uzaytirilayotgan tekshiruvlarning jami muddatlari qonunchilikda belgilangan tekshiruvlarni o‘tkazish muddatlaridan oshmasligi keraligi belgilangan.

Endi tekshiruvlar yoki vakolatli organ bilan kelishish tartibida yoxud xabardor qilish tartibida o‘tkazilishi mumkin. Agar tekshiruv o‘tkazishni tashabbus qilishga asos qilingan holatlar maxsus ro‘yxatda ko‘rsatilgan bo‘lsa, nazorat qiluvchi organlar faqat vakolatli organni Axborot tizimida ro‘yxatga olish yo‘li bilan xabardor qilishadi.

Yangi nizom profilaktika tadbirlarini kengaytirdi. Huquqbuzarliklarni bartaraf etish maqsadida endi profilaktika tadbirlari o‘tkaziladi:

- bevosita joyiga chiqmagan va tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatiga aralashmagan holda huquqiy targ‘ibot, seminarlar, tushuntirish ishlari va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;
- tadbirkorlik sub’yektlariga pochta aloqasi yoki elektron axborot tizimlari orqali ularning faoliyati yuzasidan qonunchilik talablari buzilishining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar, tadbirkorlik sub’yekti faoliyat yuritayotgan sohada sodir etilayotgan tizimli huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlar bo‘yicha xabarnomalar yuborish;
- amaldagi qonunchilik talablarini tushuntirish yuzasidan OAVda chiqishlar qilish;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni ommaviy muhokama qilish maqsadida Internet jahon axborot tarmog‘ida veb-saytlar, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda blog va chatlarni



tashkil etish;

- "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlarini tashkil etish va ularda qatnashish;
- tadbirkorlik sub'yektlarini qonunchilik talablari aks ettirilgan tarqatma materiallar va boshqa qo'llanmalar bilan ta'minlash.

Auditorlik tekshiruvda ekspert ishidan foydalanishning xorij tajribalariga kelsak, auditorning ma'lumoti va tajribasi unga ishchanlikka oid masalalardan yaxshi xabardor bo'lishga imkon beradi, biroq unda, kutilganidek, aktuarniy yoki muxandis kabi boshqa kasbga o'qigan ogdam kabi boshqa kasbga o'qigan odam kabi ekspertlik bilimi bo'lmaydi. Agar audit maxsus ekspertlik ibilimini talab qilsa, auditor zarur dalillarni yig'ishda yordam berishi uchun ekspert yollaydi. ISA 620 ekspertni maxsus barqaror mahoratga, buhgalteriya hisobi va auditdan tashqari aniq sohalarda bilim va tajribaga ega inson sifatida ta'riflaydi. auditor eksperdan foydalanishi mumkin bo'lgan vaziyat aktivlarning ma'lkm turlarini baholash (er va binolar, san'kt asarlari, qimmatbaho toshlar va boshqalar.); aktivlarning fizik (jismoniy) holatini aniqlash (belgilash); sug'urta bahosi shartnomalardan kelib chiqadigan qimmatliklar; aniqlangan ekspertlik bilimi LTS (masalan, telekommunikatsiya kompaniyalari auditi); va sud qarorlari.

Agar ekspertning ishidan nazorat dalili sifatida foydalanilsa, auditor ekspertning kasbiy guvohnomasi, tajribasi va obro'sini kshrib chiqib (bilib) malakasi va omilkorligi (bilim darajasi v.b.)ni aniqlashi zarur. Ekspertning xolisligi (ob'ektivligi) bag'olanishi lozim. Ekspert mijoz tomonidan yollab olingan yoki ayrim yo'llar bilan mijozga bog'langan bo'lsa, (ya'ni bog'liq korxonona yoki "bog'liq tomon") xolislikka putur etadi. Auditor ekspertning ishlari hajmi audit maqsadi uchun etarliligi haqida etarlicha tegishli nazorat dalillarini olishi lozim.

Mijoz ekspertga quyidagilarni kamrab oluvchi ko'rsatmalarni yozishi kerak:

- Ekspertning ish hajmi;
- Ekspert dokladining qamrovi;
- Auditor tomonidan ekspertning ishlaridan maqsadli foydalanish;
- Ekspertning mijozning fayllari va yozuvlariga kira olish imkoniyati.

Tayyorlanmagan va o'zgartirilmagan (o'zgarmagan) auditorning dastlabki hisoboti (bitiruv hisoboti) ekspertning ishiga murojaat qilishi lozim. Bunday havola noto'g'ri tushunilishi mumkin, auditor xulosasini malakasini bo'lishi yoki

javobgarlikni bo'lib olish – bularning hech qaysisi mo'ljallanmagan.

Auditorlik tekshiruvda ekspert ishida foydalanishning xorij tajribalariga kelsak, auditorning ma'lumoti va tajribasi unga ishchanlikka oid masalalardan yaxshi xabardor bo'lishga imkon beradi, biroq unda, kutilganidek, aktuarniy yoki muxandis kabi boshqa kasbga o'qigan ogdam kabi boshqa kasbga o'qigan odam kabi ekspertlik bilimi bo'lmaydi. Agar audit maxsus ekspertlik ibilimini talab qilsa, auditor zarur dalillarni yig'ishda yordam berishi uchun ekspert yollaydi. ISA 620 ekspertni maxsus barqaror mahoratga, buhgalteriya hisobi va auditdan tashqari aniq sohalarda bilim va tajribaga ega inson sifatida ta'riflaydi. auditor ekspertdan foydalanishi mumkin bo'lgan vaziyat aktivlarning ma'lkm turlarini baholash (er va binolar, san'kt asarlari, qimmatbaho toshlar va boshqalar.); aktivlarning fizik (jismoniy) holatini aniqlash (belgilash); sug'urta bahosi shartnomalardan kelib chiqadigan qimmatliklar; aniqlangan ekspertlik bilimi LTS (masalan, telekommunikatsiya kompaniyalari auditi); va sud qarorlari.

Agar ekspertning ishida nazorat dalili sifatida foydalanilsa, auditor ekspertning kasbiy guvohnomasi, tajribasi va obro'sini kshrib chiqib (bilib) malakasi va omilkorligi (bilim darajasi v.b.)ni aniqlashi zarur. Ekspertning xolisligi (ob'ektivligi) bag'olanishi lozim. Ekspert mijoz tomonidan yollab olingan yoki ayrim yo'llar bilan mijozga bog'langan bo'lsa, (ya'ni bog'liq korxonaga yoki “bog'liq tomon”) xolislikka putur etadi. Auditor ekspertning ishlari hajmi audit maqsadi uchun etarliligi haqida etarlicha tegishli nazorat dalillarini olishi lozim.

Mijoz ekspertga quyidagilarni kamrab oluvchi ko'rsatmalarni yozishi kerak:

- Ekspertning ish hajmi;
- Ekspert dokladining qamrovi;
- Auditor tomonidan ekspertning ishlaridan maqsadli foydalanish;
- Ekspertning mijozning fayllari va yozuvlariga kira olish imkoniyati.

Tayyorlanmagan va o'zgartirilmagan (o'zgarmagan) auditorning dastlabki hisoboti (bitiruv hisoboti) ekspertning ishiga murojaat qilishi lozim. Bunday havola noto'g'ri tushunilishi mumkin, auditor xulosasini malakasini bo'lishi yoki javobgarlikni bo'lib olish – bularning hech qaysisi mo'ljallanmagan.

Agar ekspert ishining natijasida auditor o'z xulosasini o'zgartirgan tarzda chiqarishiga qaror qilsa, ayrim holatlarda, modifikatsiyaning tabiatini tushuntira

borib, ekspertga nomi va ishtiroki darajasi bo'yicha murojaat qilish o'rinli bo'ladi. Bu axborotlarni ochishda ekspertning ruxsati talab qilinadi.

Agar mavjud auditor bo'lsa, Professional Buxgalterlar uchun IFAS Axloq kodeksi (etikaning 3-bobida muhokama qilingan, Professional Buxgalterlar uchun) yangi auditoridan o'zidan avval bevosita muloqotda bo'lishni talab qiladi. Yangi auditor mavjud auditorning o'rnini egallaganda, ahloq kodeksi yangicha, taklif qilingan auditorga mavjud buxgalter bilan muomalada bo'lishni tavsiya etadi. (maslahat beradi) Mavjud buxgalter mijozning ishini taklif qilingan buxgalter bilan muhokama qilgunga qadar bo'lgan daraja ushbu ochish (fosh etish)ga taaluqli mijozning ruxsatini olish bo'yicha va myuridik hamda etik talablarga bog'liq bo'ladi. Bu kommunikatsiyaning maqsadi yangi auditor auditni qabul qilib olgunicha bilishkerak bo'lgan texnik yoki etikaga oid faktlar yoki holatlar bor – yo'qligini aniqlashdan iborat. Bu talab – muhim chora bo'lib “fikrni sotib olish” yoki avvaogi auditor mijoz bilan munosabatlarini tugatgan holat haqida yangi auditorni xabardor qilishning oldini oladi. Professional Buxgalterlar uchun ahloq kodeksida bayon qilinishicha, taklif qilingan auditor izdoshidan so'rovnomani olishi bo'yicha mavjud auditor qandaydir kasbiy sabablar bor-yo'qligi, izdoshining taklif qilingan auditori vazifasini noma uchun lavozimini qabul qilmasligi kabilarni maslahatlashishi kerak. Augr mijoz mavjud ruxsat berilgan auditorga izdoshining taklif qilingan auditori bilan o'zining (uning) ishini muhokama qilishini rad etsa, mavjud auditor fakt taklif qilingan auditorga avvalgitomonidan ochilishi kerakligini aytishi mumkin.

Xulosa:

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, auditorlik tashkilotlari faoliyatini, auditorlik tekshiruv jarayonini osonlashtirish, raqamlashtirish, texnologiyalashtirish, tekshiruv jarayoni va uning natijasini shaffoflashtirish va eng asosiysi auditorning berayotgan xulosasi orqali bo'yniga olayotgan javobgarlikni kamaytirish va yengillashtirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda

Xorijiy tajribalarni o'rganib, amalda tadbiq qilish ham ko'p hollarda yaxshi natija beradi. Ammo ba'zi hollarda bizning tizimlarimizga to'g'ri kelmaydigan holatlar ham uchrab turadi.

Tizim faoliyatini yanada takomillashtirish, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruvni yanada yaxshilash uchun auditorlik

xizmatlari sifatini oshirish orqali sifatli auditorlik xizmatini ko‘rsatish va buning natijasida tekshiriladigan obyektning xato-kamchiliklarini bartaraf etish uchun sifatli xulosa berishni ta‘minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vazirlar Mahkamasining 19.10.2022 yildagi “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 611-son qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 28.09.2022 yildagi “Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 538-son qarori.
3. Moliya vazirining “Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida”gi 52-con buyrug‘i.
4. 2022 yil 13 sentyabr kuni Prezidentning “Tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-374-son qarori imzolandi.
5. Vazirlar Mahkamasining 13.02.2023 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 62-son Qarori.
6. Moliya vazirining “Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash haqida”gi 52-con buyrug‘i.
7. Otabek Barakayev, Moliya vazirligi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari. 2020 “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalarini tahririyati» DUK.